



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR YUZAGA KELISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING NAZARIY ASOSLARI

Salixova Go'zal

Toshkent xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0000-2802-7481

gozal.trad@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning yuzaga kelish omillari hamda ularning bank aktivlari sifatiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida muammoli kreditlarning shakllanishiga olib keluvchi mikro va makro omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, muammoli kreditlarni samarali boshqarish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqildi. Maqolada ta'kidlanishicha, muammoli kreditlarning o'sishi banklarning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ularni boshqarishda maxsus bo'linmalar faoliyati, qarz oluvchilar moliyaviy holatini baholash va qayta restrukturizatsiya kabi usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: muammoli kreditlar, tijorat banklari, kredit riski, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, qayta restrukturizatsiya, risklarni boshqarish, bank aktivlari sifati, mikro va makro omillar, tashqi va ichki omillar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Салихова Гузал

Ташкентский международный университет

Аннотация. В данной статье освещены факторы возникновения проблемных кредитов в коммерческих банках, а также их влияние на качество банковских активов. В ходе исследования системно проанализированы микро- и макроэкономические факторы, приводящие к формированию проблемных кредитов. Кроме того, рассмотрены стратегии, направленные на эффективное управление проблемными кредитами и снижение их негативных последствий. В статье подчёркивается, что рост проблемных кредитов оказывает прямое негативное влияние на финансовую устойчивость и рентабельность банков. В связи с этим важное значение имеют деятельность специализированных подразделений, оценка финансового состояния заёмщиков и такие методы, как реструктуризация задолженности.

Ключевые слова: проблемные кредиты, коммерческие банки, кредитный риск, кредитный портфель, финансовая устойчивость, реструктуризация, управление рисками, качество банковских активов, микро и макрофакторы, внешние и внутренние факторы.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF FACTORS INFLUENCING THE EMERGENCE OF NON-PERFORMING LOANS IN COMMERCIAL BANKS

Salikhova Guzal

Tashkent International University

Abstract. *This article highlights the factors contributing to the emergence of non-performing loans in commercial banks and their impact on the quality of bank assets. The study systematically analyzes the micro and macro factors leading to the formation of non-performing loans. In addition, strategies aimed at the effective management of non-performing loans and the mitigation of their negative consequences are examined. The article emphasizes that the increase in non-performing loans directly undermines the financial stability and profitability of banks. Therefore, the role of specialized departments, the assessment of borrowers' financial condition, and restructuring mechanisms are of crucial importance in managing such loans.*

Keywords: *non-performing loans, commercial banks, credit risk, loan portfolio, financial stability, restructuring, risk management, quality of bank assets, micro and macro factors, internal and external factors.*

Kirish.

Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tayanchlaridan biri bo'lib, uning barqarorligi va samarali faoliyati moliyaviy rivojlanishning kafolatidir. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar real sektorni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar (NPL non-performing loans)ning ortishi banklarning moliyaviy barqarorligiga, aktivlar sifatiga va umumiy iqtisodiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish va tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident qaror va farmonlarida bank aktivlarining sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish va barqaror kreditlash amaliyotini yo'lga qo'yishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonini keltirish mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Muammoli kreditlarning umumiy darajasini inobatga olgan holda, ushbu sohada olib borilgan ko'plab tadqiqotlar NPL darajasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida makroiqtisodiy yoki bankka xos (mikroiqtisodiy) omillarni asosiy tushuntiruvchi omillar sifatida ko'rsatgan. Biroq, Salas va Saurina (2002), Mabvure (2012) hamda Louzis va boshqalar (2012) o'z tadqiqotlarida 1985–1997-yillar davomida Ispaniyaning tijorat va jamg'arma banklarining NPL darajasini tushuntirish uchun makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy o'zgaruvchilarni birgalikda qo'llashgan. Ularning natijalari shuni ko'rsatdiki, bankka xos omillar muammoli kreditlarning oldindan ogohlantiruvchi belgisi sifatida qaralishi mumkin.

E'tiborga loyiq jihati shundaki, ko'pgina empirik tadqiqotlar makroiqtisodiy o'zgaruvchilarning NPL darajasiga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan. Masalan, Yevropa mamlakatlaridagi uy xo'jaliklarining muammoli kreditlari bo'yicha Rinaldi va Sanchis-Arellano (2006) olib borgan tadqiqotda yashash uchun qoladigan daromad (disposable income), pul-

kredit siyosati shartlari hamda ishsizlik muammoli kreditlarga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Adabiyotlarda ayrim banklarning o'ziga xos xususiyatlari kredit muammolari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Shu doirada, Berger va DeYoung (1997) o'z tadqiqotlarida banklarning xususiyatlari, samaradorlik ko'rsatkichlari va yomon kreditlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Chexiya bank tizimida 1994–2005-yillar davomida samaradorlik va yomon kreditlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganar ekan, Podpiera va Weill (2008) narx samaradorligi (cost efficiency) pasayganida muammoli kreditlar ko'payishi mumkinligini aniqlashgan. Xitoy bank tizimi misolida, Li va boshqalar (2007) esa rag'batlantiruvchi shartnomalar (incentive contracts) NPLlarni boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berishgan.

Gretsiya bank tizimi doirasida 2003–2011-yillarni qamrab olgan Louzis va boshqalar (2012) tadqiqotida banklar samaradorligi pasayganda barcha turdagi NPL ko'rsatkichlari ortishi aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning yuzaga kelish omillari va ularni boshqarish strategiyalari o'rganildi. Bunda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, Markaziy bank va xalqaro moliya institutlari hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqotda tahliliy-qiyosiy, iqtisodiy-statistik, mantiqiy umumlashtirish va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanilib, muammoli kreditlarni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Muammoli kreditlar kredit riskining asosiy manbai hisoblanadi. Bank kredit portfelini samarali boshqarish nafaqat uni "xavf–daromad" mezoniga muvofiq ravishda malakali, barqaror va muvozanatli shakllantirishni, balki kreditlarning, xususan muammoli kreditlarning to'liq va o'z vaqtida qaytarilishini ham o'z ichiga oladi.

1-jadval

Muammoli kreditlar bo'yicha avvalgi tadqiqotlar xulosalari

Natijalar	Manbalar
AQShda muammoli kreditlarning asosiy omillari makroiqtisodiy o'zgaruvchilar ekanligi aniqlangan.	Sinkey va Greenawalt (1991), Gambera (2000)
45 ta mamlakat ma'lumotlari asosida banklarning barqarorligi o'rganilgan. Inqiroz davrida banklar kredit yo'qotishlari uchun kam zaxira ajratadi va iqtisodiy qiyinchilik kuchayganida bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.	Laeven va Majnoni (2003)
Mualliflar banklarning kredit yo'qotish zaxiralarini boshqarish orqali foydani oshirish omillarini tahlil qilgan. Mamlakat bozor va moliya tizimlari kuchli bo'lsa, banklar barqarorroq bo'ladi.	Fonseca va Gonzalez (2008)
Makroomillar: yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya (INF), ishsizlik darajasi (UNEMP). Mikro omillar: kredit-depozit nisbati (LTD), kapitalning aktivlarga nisbati (E_TA), asosiy kapitalning jami aktivlarga nisbati (TIER_1) va mijoz depozitlari. Muallif to'qqizta omil, jumladan kredit hajmining oshishi (DEP), muammoli kreditlar (CR) va DUMMY o'zgaruvchilarining jami kredit o'sishiga ta'sirini o'rganadi.	Cucinelli (2015)
Makroomillar: yalpi ichki mahsulot (YaIM) va pul massasi (M2). Mikro omillar: kredit-depozit nisbati (LDR), kapital nisbati (CAR), bank kapital nisbati (WMP) va biznes iqlim indeksi (BCI). Muallif 6 ta omilning ta'sirini o'rgangan.	Lee va Kim (2020)

Muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha bank strategiyasi banklarning katta hajmdagi muammoli kreditlarni hal qilishga operativ tayyorligini ta'minlashi, muammoli kreditlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks harakatlar rejasi hamda regulyator bilan kelishilgan miqdoriy maqsadlarni o'z ichiga olishi kerak.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning shakllanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ularni shartli ravishda qarz oluvchidan kelib chiqadigan va bank faoliyatidan kelib chiqadigan omillarga ajratish mumkin. Qarz oluvchilar tomonidan yuzaga keladigan sabablar yuridik va jismoniy shaxslar misolida namoyon bo'ladi. Yuridik shaxslar holatida noto'g'ri ishlab chiqilgan biznes-reja, boshqaruvdagi sustkashlik, moliyaviy intizomning buzilishi, bozor diversifikatsiyasining yetarli emasligi, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning pasayishi kabi omillar asosiy xavf manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, garov qiymatining pasayishi, korxona aktivlarining sifati yomonlashuvi yoki firibgarlik holatlari kreditni qaytarish imkoniyatini yanada cheklab qo'yadi. Jismoniy shaxslar misolida esa daromad manbalarining qisqarishi, ishsizlik, moliyaviy savodxonlikning pastligi, ma'lumotni noto'g'ri ko'rsatish va favqulodda holatlar muammoli kreditlarning asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etiladi (2-jadval).

2-jadval

Banklarda muammoli kreditlar (NPL) yuzaga kelish omillari

Ichki omillar (mikro daraja ta'siri)			
Qarz oluvchi tomonidan yuzaga kelgan		Bank tomonidan yuzaga kelgan	
Yuridik shaxs:	Jismoniy shaxs:	Tashkiliy va nazorat bilan bog'liq:	Kadrlar bilan bog'liq:
- Biznes-reja tuzishda xatolar - Kredit olingandan keyin rejalashtirish va boshqaruvdagi xatolar - Yetkazib beruvchilar va xaridorlarning past diversifikatsiyasi - Moliyaviy ahvolning yomonlashuvi - Mahsulotga (tovar, ish, xizmat) talabning kamayishi → bozorni yo'qotish - Garov qiymatining tushib ketishi - Past sifatli boshqaruv - Fors-major (mulkning yo'qolishi) - Ma'lumotni ataylab yashirish - Firibgarlik holatlari va boshqalar	- Ishni vaqtincha yo'qotish - Daromadning kamayishi - Moliyaviy savodxonlikning pastligi - Ma'lumotni ataylab yashirish - Firibgarlik - Fors-major (mulkni yo'qotish) va b.	- Yetarli darajada o'ylab chiqilmagan kredit siyosati - Kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlarning ustunligi - Bank bilan bog'liq shaxslarga imtiyozli kredit berish - Qarz oluvchi haqida yetarli va aniq bo'lmagan ma'lumot - Garov qiymatini noto'g'ri baholash - Qarz oluvchi moliyaviy ahvoli va garov qiymatidagi o'zgarishlarni noto'g'ri monitoring qilish - Kafillarning to'liq tekshirilmasligi - Kredit shartnomasining bajarilishini noto'g'ri nazorat qilish - Xavfli biznes sohalariga (venture, innovatsion loyihalar) kredit ajratish - Boshqa banklar bergan kreditlarni qayta moliyalashtirish va b.	- Malaka darajasining yetarli emasligi - Soha bo'yicha tajriba kamligi - Qarz oluvchini yuzaki tekshirish - "Kredit rejasi"ni bajarishga haddan tashqari intilish - Kredit bo'limi xodimlarining suiiste'mollari va b.

Manba: BIS (Xalqaro hisob-kitoblar banki) 2022; Bolhar, 2013; Zaitseva va boshq., 2019; Anzhela Nikolaieva, 2022; Zatvornytskyi, 2020; Krukhmal va boshq., 2021; Yaremenko va boshq., 2016; va boshqa manbalar asosida muallif ishlanmasi.

Bank faoliyatiga oid omillar esa ko'proq tashkiliy yondashuv va kadrlar salohiyati bilan bog'liq. Kredit siyosatining yetarlicha puxta ishlab chiqilmaganligi, xorijiy valyutadagi qarzlarining yuqori ulushi, aloqador shaxslarga imtiyozli kreditlar ajratish, qarz oluvchining moliyaviy

holati haqida to'liq va aniq ma'lumot mavjud emasligi, garov va kafillikning noto'g'ri baholanishi yoki monitoring jarayonidagi xatoliklar kredit portfelining sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, bank xodimlarining malaka va tajribasi yetishmasligi, qarz oluvchini yuzaki tekshirish yoki xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish kabi holatlar ham muammoli kreditlarning ko'payishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, kredit riski nafaqat tashqi iqtisodiy sharoitlar yoki qarz oluvchining moliyaviy ahvoriga, balki bankning ichki boshqaruv tizimi va kadrlar kompetensiyasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, muammoli kreditlarning oldini olishda qarz oluvchilarni chuqur tahlil qilish, kredit siyosatini puxta shakllantirish hamda bank xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish muhim omillar sifatida qaraladi.

3-jadval

Banklarda muammoli kreditlar (NPL) yuzaga kelishida tashqi omillar ta'siri

Tashqi omillar (makro daraja ta'siri)	
Ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi	Iqtisodiy xarakterdagi
- To'liq ko'lamdagi harbiy harakatlar (Ukraina hududida) - Harbiy mojarolarning cho'zilishi - Pandemiya (COVID-19) tufayli karantin cheklovlari va yangi lokdaunlar xavfi - Siyosiy beqarorlik - Ishsizlik darajasining o'sishi - Qonunchilikdagi salbiy o'zgarishlar - Sudyalar halolligining pastligi va b.	- Moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar - Iqtisodiy pasayish, YAIMning tushishi - Energiya resurslari va elektr energiyasi narxlarining oshishi - Inflyatsiyaning o'sishi - Milliy valyutaning qadrsizlanishi (grivnaning devalvatsiyasi) - Sanoatdagi biznes faolligining pasayishi - Soliqlarning asossiz oshirilishi - Davlat tomonidan biznesni qo'llab-quvvatlamaslik (ayniqsa inqiroz davrida) va b.

Manba: BIS (Xalqaro hisob-kitoblar banki) 2022; Bolhar, 2013; Zaitseva va boshq., 2019; Anzhela Nikolaieva, 2022; Zatvornytskyi, 2020; Krukhmal va boshq., 2021; Yaremenko va boshq., 2016; va boshqa manbalar asosida muallif ishlanmasi.

Siyosiy beqarorlik, savdo ziddiyatlari hamda geosiyosiy keskinliklar iqtisodiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, qarz oluvchilarning kreditlarni qaytarish imkoniyatini zaiflashtiradi. Bu esa banklarning kredit portfeli sifatini pasaytirib, muammoli kreditlar hajmining ortishiga olib keluvchi muhim makro darajadagi omillardan biri sanaladi. Iqtisodiy tanazzul mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ish o'rinlarining qisqarishiga, aholining daromadlari pasayishiga hamda tadbirkorlik faoliyatining sustlashuviga olib keladi. Bunday og'ir sharoitlarda qarz oluvchilar kredit majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishda qiynaladi va natijada muammoli kreditlar soni ortib boradi.

Geosiyosiy omillar ta'siridagi makroiqtisodiy muhitda savdo nizolari, iqtisodiy beqarorlik, valyuta kursining o'zgaruvchanligi, biznes jarayonlaridagi uzilishlar, sanoatning zaif jihatlar, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, sanksiyalar va cheklovlar, shuningdek kredit portfelini yetarlicha diversifikatsiya qilmaslik kabi omillar banklarda muammoli kreditlarning ko'payishiga hamda moliyaviy yo'qotishlarning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Muammoli kreditlarni boshqarishda kredit tavakkalchiligini samarali nazorat qilish uchun kredit tashkiloti o'zining kredit xavfi strategiyasiga mos ravishda kompleks boshqaruv tizimini ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq etishi lozim. Banklar kredit xavfi bilan bog'liq boshqa tavakkalchiliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ham inobatga olishlari zarur. Kredit xavfini samarali boshqarish risklarni boshqarishga kompleks yondashuvning ajralmas qismi

bo'lib, har qanday bankning barqaror va uzoq muddatli faoliyati uchun asosiy omillardan biridir.

Xulosa va takliflar.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish omillari tizimlashtirilishi va batafsil yoritilishi, ularning mikro va makro darajadagi turli xil tabiati hamda ta'sir subyektlarini hisobga olgan holda, mahalliy banklarga o'z kredit portfellarining sifatini chuqur tahlil qilish, muammoli kreditlar ulushining o'sishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning tabiatini aniq belgilash, shuningdek, kelgusida kredit risklarini minimallashtirish maqsadida ularning kelib chiqishida javobgar bo'lgan sharoit va shaxslarni aniqlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha taklif etilgan strategiya bankning kompleks harakatlar rejasini tavsiflaydi. Ushbu rejaga amalda rioya etilishi banklarga mavjud sharoitlarda katta hajmdagi muammoli kreditlarni hal etishga operativ tayyor turish imkonini beradi va bu o'z navbatida kredit portfellari sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Cucinelli, Doriana. (2015). *The Impact of Non-performing Loans on Bank Lending Behavior: Evidence from the Italian Banking Sector*. Eurasian Journal of Business and Economics 16: 59–71. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B7-jrfm-17-00203>

Fonseca, Ana Rosa, and Francisco González. (2008). *Cross-country determinants of bank income smoothing by managing loan-loss provisions*. Journal of Banking & Finance 32: 217–28. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B8-jrfm-17-00203>

Laeven, Luc, and Giovanni Majnoni. (2003). *Loan loss provisioning and economic slowdowns: Too much, too late?* Journal of Financial Intermediation 12: 178–97. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B14-jrfm-17-00203>

Lee, Yum, and Sok-Tae Kim. (2020). *A Study on Factors Affecting the Non-performing Loans in Chinese Commercial Banks*. International Commerce and Information Review 22: 93–113. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B15-jrfm-17-00203>

Sinkey, Joseph F., Jr., and Mary Brady Greenawalt. (1991). *Loan-Loss Experience and Risk-Taking Behavior at Large Commercial Banks*. Journal of Financial Services Research 5: 43–59. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B19-jrfm-17-00203>